

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2
0
2
4



No 7

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja
ISSN: 2992-8982



Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinbosari:
Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:
Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

*Elektron nashr. 348 sahifa.
E'lon qilishga 2024-yil 25-iyulda ruxsat etildi.*

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinbosari
Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati
Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lim muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUprofessor
Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori
Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti
Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinbosari
Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi IJQKD boshlig'i
Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori
Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori
Cham Tat Huei, (PhD) USCI universiteti professori, Malayziya
Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinbosari
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi
Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH
Ali Konak (Али Кўнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya
Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti
Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti
Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Oqil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Rae Kwon Chung, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,

Osman Mesten, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Buzrukkhanov Sarvarkhan Munavvarkhanovich, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Durbek Kudratillayevich, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan

Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations

Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation

Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute

Siddikova Sadokat Ghaforovna, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology

Khudoykulov Sadirdin Karimovich, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, DSc, Prof., of TSUE

Samadov Askarjon Nishonovich, CSc, Prof., of TSUE

Slizovsky Dimitriy Yegorovich, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University

Akhmedov Ikrom Akramovich, DSc, Prof., of TSUE

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli, DSc, Prof., of TSUE

Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan

Ochilov Farkhod, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan

Eshtayev Alisher Abduganievich, DSc, Prof., of TSUE

Shoira Azimovna Musaeva, professor of SamDu IS Institute

Cham Tat Huei, PhD, professor at USCI University, Malaysia

Akhmedov Javokhir Jamolovich, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund

Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction

Judy Smetana CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Chrissy Lewis CSc, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA

Ali Konak DSc, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey

Glazova Marina Viktorovna, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.

Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, associate professor of TSUE

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey

Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, independent researcher of TSUE

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., profesor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori
Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori
Xalikov Suyun Ravshanovich, i. f. n., TDAU dotsenti
Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d, TDIU dotsenti
Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti
G'afurov Doniyor Orifovich, p.f.f.d., (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d, TDIU dotsenti
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, i.f.d., TMI dotsenti
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

Avtosanoat korxonalari marketing strategiyasini takomillashtirish yo'llari	16
Qo'ng'iro'tboy Avezimbetovich Sharipov, Zayniddinova Umida Djalolovna	
Mamlakat raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishda maxsus iqtisodiy zonalar omilidan foydalanish istiqbollari	26
Izbosarov Boburjon Baxriddinovich, Abdurasulov Ravshanbek Xotam o'g'li	
Mahalla institutini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning institutsional tahlili	32
Bahriddinov Viqorjon Akbar o'g'li	
Mamlakatimizda pillachilik biznesini rivojlantirish orqali mahsulot ishlab chiqarish va uni qayta ishlash holatining tahlili	37
Turgunov Odilbek Maripovich	
Etnografik turizmni tashkil etishning xorij tajribasi	41
I. Axmedov	
Xizmatlar sohasining milliy iqtisodiyotdagi rolini tahlil qilishning zamonaviy yondashuvlari.....	46
Xusanov Murodjon Sunnatullayevich	
Iqtisodiy o'sish tushunchasi va uning rivojlanish tarixi.....	54
Maksudov Avazbek Ulug'bek o'g'li	
Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni takomillashtirish asosida inson kapitalini rivojlantirish	59
Ubaydullaev G'ayrat Zuvaytovich	
O'zbekistonda aholi bandligini ta'minlashda oilaviy tadbirkorlikning o'rni.....	65
Baymanova Mavlyuda Djurayevna	
The Effect of Students' Financial Status on Academic Performance in Uzbekistan	70
Alimov Damirjon Odilovich	
Qoraqalpog'iston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasida tadbirkorlik faoliyatining o'rni.....	76
Jusupova Anjim Tansiqbaevna	
Insurance Mechanisms in Foreign Trade: Mitigating Risk and Facilitating Global Commerce	82
Sohibjamol Abirkulova	
Nodavlat umumiy o'rta ta'lim maktabning faoliyati samaradorligini aniqlashdainnovatsion usullardan foydalanish	87
Ustadjalilova Xurshida Aliyevna	
Qishloq xo'jaligi korxonalarida asosiy vositalar hisobi va auditi bo'yicha xorijiy tajribalar va ulardan respublikamizda foydalanish imkoniyatlari.....	92
Xojimurodov Zuxriddin Shukurullo o'g'li	
O'zbekiston Respublikasi budjetining shakllanishida egri soliqlarni undirishning fiskal samaradorligi.....	97
Abdulxayeva Shahnoza Muxammadiyevna	
Mamlakat sanoatining barqaror rivojlanishida energosamaradorlikning roli.....	104
J. J. Yaxshilikov	
Сравнительный анализ состояния сферы услуг в регионах Андижанской области.....	109
Мусабоев Рустам Алижонович	
Hududlarda aholi bandligini oshirish va kambag'allikni qisqartirishda ishlab chiqarish sanoatining o'rni (Qashqadaryo viloyati misolida.....)	114
Hamdamov Shahzod Ilhom o'g'li, Baxronov Baxriddin Najmiddinovich	
Banklarning qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyatini takomillashtirish yo'llari.....	118
Ermatov Utkirbek Baxodirjonovich	



Развитие цифровой экономики в Узбекистане, ее плюсы и минусы	122
Раупова Мухлисахон Ибрахимжон кизи, Мамбетова Мадина Зоҳид кизи, Алижонова Малика Алижон кизи, Ҳакимова Нигора Бахтиёрвна	
Investment Management is an Important Factor of Economic Development.....	127
Yuldasheva G. A., Ziyayev Dilshodjon	
O'zbekistonda moliyaviy texnologiyalar sanoatining rivojlanish istiqbollari.....	130
Rustamov Jasurbek Ravshanbek o'g'li	
Davlat-xususiy sherikchilik asosidagi loyihalarni moliyalashtirish.....	136
Toyirov Yunus Alamovich	
Operatsion faoliyatni boshqarishda strategiya tushunchasiga bo'lgan yondashuvlarning shakllanishi.....	143
Dedajanov Baxtiyor Nabijanovich	
Ta'lim jarayoniga raqamli texnologiyalarni joriy etish orqali ta'lim sifati va samaradorligini ta'minlash.....	148
Xusniddinov Yorqinjon Muxiddin o'g'li	
Budjet tashkilotlarida pul mablag'lari nazorat qilishni rivojlantirish yo'llari.....	152
Alimardonov Muxammadi Ibragimovich, Djalilova Malika Shuxratovna	
QQS ma'murchiligining yevropa tajribasi.....	157
Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich	
O'zbekistonda soliq yukiga ta'sir etuvchi omillar tahlili	162
Nasimov Ravshanjon Azimovich	



QQS MA'MURCHILIGINING YEVROPA TAJRIBASI

ORCID:0000-0002-3389-1570

Bisenbayev Sharyar Kuanishbayevich

Qoraqalpoq davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot ishida Yevropa mamlakatlarida QQSni qo'llanishi ko'rib chiqilgan. QQS ma'murchiligiga oid ilmiy adabiyotlarning sharhi amalga oshirilgan. Maqolada QQSning mohiyati, soliq to'lovchilar tarkibi va soliq solish bog'liq boshqa masalalar tahlil qilingan. Tahlil natijasida tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik subyekti, tovar aylanmasi, soliq solish, QQS, soliq stavkasi, soliq imtiyozlari.

Abstract: This study examines the application of VAT in European countries. A review of scientific literature on VAT administration was conducted. The article analyzes the essence of VAT, the composition of taxpayers and other issues related to taxation. As a result of the analysis, appropriate conclusions were drawn.

Key words: business entities, goods turnover, taxation, VAT, tax rate, tax benefits.

Аннотация: В данном исследовании рассматривается применение НДС в европейских странах. Проведен обзор научной литературы по администрированию НДС. В статье анализируется сущность НДС, состав налогоплательщиков и другие вопросы, связанные с налогообложением. В результате анализа были сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: субъекты предпринимательства, товар оборот, налогообложение, НДС, налоговая ставка, налоговые льготы.

KIRISH

Qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) turli mamlakatlarda keng qo'llaniladigan tovar va xizmatlarni ishlab chiqarish va realizatsiyasida yaratilgan qo'shilgan qiymatga soliq solish shaklidir. Ishlab chiqaruvchi (sotuvchi) tomonidan olingan soliq summasi budjetga to'lanadi, lekin u ilgari sotib olgan tovarlar yoki xizmatlar narxiga kiritilgan soliq summasi chegirib tashlanadi. QQS bilvosita soliq hisoblanadi, chunki soliq summasi tovar va xizmatlar narxiga kiritiladi va iste'molchi tomonidan sotib olinganda sotuvchiga to'lanadi, u o'z navbatida soliqni davlat budjetiga to'laydi. Egri soliqqa tortish nazariyasi va amaliyotining rivojlanishi soliqning mutlaqo yangi turi qo'shilgan qiymat solig'i (QQS)ning paydo bo'lishiga olib kelgan. Yevropa mamlakatlarida soliq solish obyektini sifatida qo'shilgan qiymat kabi ko'rsatkichdan foydalanish zarurati umumiy bozorning yuzaga kelishi bilan bog'liq edi. Yevropa mamlakatlarida QQSning keng qo'llanishi, qaysiki QQS Yevropa Ittifoqiga (YEI) a'zo mamlakatlar uchun asosiy bilvosita soliq sifatida tasdiqlangan va kelajakda YEI qo'shilish niyatida bo'lgan davlatlar uchun majburiy shart sifatida belgilagan I va III Direktivlarini 1967-yilda qabul qilishni tezlashtirgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Bugungi kunda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) bo'lgan 170 dan ortiq mamlakatlarning deyarli barchasida QQS qo'llaniladigan bo'lsada, rivojlangan mamlakatlarda nisbatan qo'llanish sohasi va soliq stavkalarining masshtabi kengroqdir. Yevropa hamjamiyati boshidanoq bilvosita soliqqa tortishni uyg'unlashtirishga katta e'tibor qaratdi, chunki chunki Yevropa integratsiyasi asoschilarining fikriga ko'ra, tovarlar, ishlar va xizmatlarning erkin harakatlanishiga jiddiy to'siq bo'lishiga bilvosita soliqqa tortishni tartibga solishdagi nomuvofiqliklar sabab bo'lishi mumkin. Natijada, bilvosita soliqqa tortishni uyg'unlashtirish Yevropa hamjamiyati to'g'risidagi shartnomada Yevropa integratsiyasining alohida vazifasi sifatida belgilandi[1]. YEIda bilvosita soliqqa tortishni uyg'unlashtirishda asosiy o'rinni qo'shilgan qiymat solig'i egallaydi, chunki u davlatlararo darajada soliqlarni uyg'unlashtirishning asosiy instrumentlaridan biri hisoblanadi. Soliqlarni uyg'unlashtirish konsepsiyasi yagona Yevropa iqtisodiy makonini yaratish jarayonida paydo bo'lgan va boshqa mintaqaviy davlatlararo tuzilmalar doirasida yanada rivojlangan [2]. Ushbu global vazifani amalga oshirish uchun QQSni hisoblash tamoyillarini unifikatsiya qilish va QQS stavkalari va boshqa bilvosita soliqlarning yaqinlashishini ta'minlash zarur edi. Bugungi kunda QQS dunyoning 137 mamlakatida amal qilib, mazkur soliq ko'pchilik rivojlangan mamlakatlarning soliq



tizimlarida keng qo'llanilishini natijasida, aylanmada soliqni samarali ravishda siqib chiqaradi va savdo solig'i qiymatini sezilarli darajada kamaytirgan[3].

2010-yil 1-yanvardan kuchga kirgan qo'shilgan qiymat solig'i bo'yicha YEI qonunchiligiga kiritilgan so'nggi tuzatishlarni ko'rib chiqiladigan bo'lsa, ushbu o'zgarishlar natijasi "QQS to'plami", deb nomlanuvchi Yevropa Ittifoqi Kengashining 2008/8/ES, 208/9/ES va 2008/117/ES Direktivalar hisoblanadi [4]. Ushbu o'zgarishlar to'plami xalqaro savdoda QQS tizimini soddalashtirish va takomillashtirish hamda firibgarlikka qarshi kurashish maqsadida kiritilgan bo'lib, barcha YEI mamlakatlarida kuchga kirgan va o'z ichiga quyidagilarni qamrab olgan: xizmatlar ko'rsatish joyini aniqlashning yangi qoidalari; Xalqaro xizmatlar va tovarlarga nisbatan ESLga o'zgartirishlarni ko'rsatuvchi majburiy Yevropa Konsolidatsiyalangan Deklaratsiyasi (Obligatory European Sales List-ESL); YEI a'zo boshqa davlatlarda to'langan QQS uchun elektron shaklda QQSni qaytarishning yangi tartibi [5]. Shunday qilib, QQS bo'yicha eng muhim o'zgarish xizmatlar ko'rsatish joyini aniqlashning yangi tartibini o'rnatishdir. Endi xizmatlarning aksariyat turlari buyurtmachining (iste'molchi) joylashgan joyida (avvalgidek pudratchi emas) xizmat ko'rsatish shartnomasi bo'yicha taqdim etiladi[6]. Shuning uchun bunday hollarda xizmatlarni sotish buyurtmachining mamlakatida QQSga tortiladi.

Yangi qoidalarning maqsadi QQS ko'rsatilgan xizmatlarni yetkazib beruvchilar emas, balki xizmatlar iste'molchisi joylashgan mamlakatda to'lanishini ta'minlashdan iborat. Natijada, YEI mamlakatlarida buyurtmachi kompaniyalar QQSni hisobga olish qoidalariga muvofiq xorijiy kontragent tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarning asosiy qismi uchun QQSni hisobga olishlari kerak bo'ladi[5]. Ushbu umumiy qoida soliq to'lovchi bo'lgan buyurtmachilar (Business to Business yoki B2B) va soliqqa tortiladigan shaxs tomonidan soliq solinmaydigan shaxsga xizmatlar ko'rsatish (Business to Customer ili B2C) holatlari uchun farq qiladi. Oxirgi holatda qoida o'zgarimasdan qolgan, ya'ni xizmatlar ko'rsatish joyi xizmalarni ko'rsatuvchi joylashgan joyi hisoblanadi. Soliq solinadigan shaxs soliqqa tortilmaydigan shaxsga (B2C) xizmatlar ko'rsatgan taqdirda, QQS xizmat ko'rsatuvchi tomonidan o'z mamlakatining budjetiga to'lanadi, u soliq summasini schot-fakturaga kiritadi. Biroq bu holatda ham, taqdim etish joyi yetkazib beruvchining joylashgan joyi bo'lmagan ayrim turdagi xizmatlar mavjud. Bularga xizmatning mohiyatini belgilaydigan asosiy harakatlarni ko'rsatish joyida ko'rsatiladigan vositachilik xizmatlari; tovarlarni tashish bo'yicha xizmatlar va boshqalar kiradi[7].

YEI doirasida Yevropa QQS istiqbollariga kelsak xalqaro savdoda QQSni undirishning yagona tizimiga o'tish rejalashtirilmogda, bunda soliq belgilangan tovarlar ishlab chiqarilgan joyda emas, balki tovar yetkazib berish mo'ljallangan joydan undiriladi. Bu shuni anglatadiki, tovarlarni bir Yevropa davlatidan boshqasiga sotishda sotuvchi tovar narxiga QQSni qo'shib qo'yadi va xaridor to'langan QQS miqdorida xuddi mamlakat ichida savdo qilganda soliq imtiyozini oladi[8]. Natijada, ichki va YEI ichidagi savdo uchun QQS hisobi va hisoboti aynan bir xil tarzda amalga oshiriladi, bu esa YEI ichidagi savdo uchun tranzaksiya xarajatlarini kamaytirishga olib keladi. Bu bojxona chegaralarini bekor qilish bilan birga chinakam umumiy Yevropa bozorini yaratishda muhim omil bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, ushbu tizim umumiy bozor mafkurasiga mos keladi, unga ko'ra QQS to'lanadigan tovarlar va xizmatlar YEI doirasida erkin muomalada bo'ladi va QQSning o'zi mohiyatan milliy emas, balki umumyevropa solig'idir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot ishida QQSni qo'llash bo'yicha ilmiy adabiyotlar va ushbu sohadagi tadqiqotlar o'rganilgan va ilmiy adabiyotlar sharhi amalga oshirilgan. Nazariy va amaliy nuqtayi nazardan YEI mamlakatlarida QQS soliq ma'murchiligini tahlili amalga oshirilgan. Tahlilda QQS to'lovchilari va ularni ro'yxatga olish tartibi, QQS solinadigan operatsiyalar tarkibi, soliq solishdan ozod qilingan toifalar va soliq stavkalari bilan bog'liq masalalar ko'rib chiqilgan. Tadqiqotda ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tasviriy statistika, ekspert bahosi, analiz kabi usullardan foydalanildi.

TADQIQOT NATIJALARI VA TAHLILI

YEIda QQS to'lovchilari yuridik shaxslar va biznes sohasidagi tadbirkorlik subyektlari, ya'ni, korxonalar, xususiy tadbirkorlar va yakka tartibdagi tadbirkorlardir. Xususiy shaxslar ko'p hollarda QQS to'lovchilari emas, chunki ular tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirmaydilar (garchi transport va ko'chmas mulkni sotish uchun ma'lum istisnolar mavjud bo'lsa ham). YEIda QQS tovarlarni sotish va xizmatlarni ko'rsatishni o'z ichiga olgan juda keng turdagi operatsiyalarga nisbatan qo'llaniladi. YEIda QQS solingan operatsiyalarga quyidagilar kiradi:

1. YEI hududida tovarlarni sotish bilan bog'liq barcha operatsiyalar, shu jumladan, uchinchi mamlakatlardan tovarlar importi;
2. YEIda turli xil xizmatlarni taqdim etish, jumladan konsalting, transport va logistika xizmatlari, axborot texnologiyalari xizmatlari, qurilish, restoran xizmatlari va boshqalar;
3. YEIga a'zo turli davlatlar o'rtasida tovarlar va xizmatlarni realizatsiyasi;



4. YEIda QQS bo'yicha ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar o'rtasidagi operatsiyalar.

QQS solig'idan to'liq ozod qilingan yoki ularga nisbatan pasaytirilgan stavkalar qo'llaniladigan tovarlar va xizmatlar toifalari mavjud bo'lib, masalan, YEIdan tashqarida tovarlar va xizmatlar eksportiga odatda QQS solinmaydi va oziq-ovqat, tibbiy xizmatlar yoki kitoblar kabi tovarlar yoki xizmatlarning ayrim toifalari uchun maxsus QQS rejimlari va stavkalari mavjud. YEI mamlakatlarida QQS to'lanadigan operatsiyalarni amalga oshiruvchi tadbirkorlik subyektlari QQS to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tishlari lozim. QQSni ro'yxatdan o'tkazish qoidalari YEIda farq qiladi. Yevropada QQS to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tish ham majburiy, ham ixtiyoriy asosda bo'lishi mumkin. Majburiy QQSni ro'yxatdan o'tkazish, agar YEIda yillik realizatsiya hajmi belgilangan chegaralardan yuqori bo'lganda o'rnatiladi. Ushbu chegaralar kompaniya ro'yxatdan o'tgan mamlakatga bog'liq va yiliga 15000 yevrodan 100000 yevrogacha bo'lishi mumkin. Biroq, agar tadbirkorlik subyekting yillik tovar aylanmasi har bir YEIga a'zo davlat tomonidan belgilangan chegaradan oshib ketmagan holatda, QQS to'lovchi sifatida ro'yxatdan o'tish majburiy hisoblanmaydi, ya'ni ixtiyoriy deb hisoblash mumkin. Bundan tashqari, YEIda QQS bo'yicha ro'yxatdan o'tgan kompaniyalar soliq hujjatlarini, shu jumladan schot-fakturalarni va QQS hisobotlarini saqlash va hisobga olish bilan bog'liq qoidalarga rioya qilishlari talab qilinadi.

QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tish uchun kompaniya joylashgan mamlakatning tegishli soliq organlariga murojaat qilishini lozim bo'lib, rasmiylashtirish muddati o'rtacha 10–14 kunni tashkil qiladi. Kompaniya joylashgan mamlakatga va ushbu mamlakatning soliq xizmati tomonidan belgilangan talablarga qarab, hujjatlar ro'yxati farq qilishi mumkin. Biroq, odatda, quyidagi hujjatlarni taqdim etish talab qilinadi: QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tkazish to'g'risidagi ariza; kompaniyaning ta'ris hujjatlarining nusxasi; kompaniya rahbarining pasporti nusxasi; kompaniyaning manzilini tasdiqlovchi hujjat; kompaniyaning faoliyat turi va sotish hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar [9].

Ammo umuman olganda, QQSni ro'yxatdan o'tkazish quyidagi hollarda talab qilinadi:

1. QQSGa tortiladigan operatsiyalar bo'yicha yillik aylanma belgilangan chegaradan yuqori bo'lsa. Yillik aylanmaning belgilangan chegarasi mamlakatlar bo'yicha turlichadir. Masalan, operatsiyalar bo'yicha yillik aylanma chegarasi Germaniyada aylanma chegarasi 175000 yevroni, Fransiyada esa 33200 yevroni tashkil qiladi.
2. Agar kompaniya YEIning bir nechta mamlakatlarida QQS solingan operatsiyalarni amalga oshiradigan bo'lsa.
3. Agar kompaniya YEIning boshqa mamlakatlaridagi kompaniyalar bilan QQS soliqqa tortiladigan operatsiyalarni amalga oshirsa.

Korxonada QQS to'lovchisi sifatida ro'yxatdan o'tgandan keyin, amalga oshirilgan operatsiyalarning hisobini o'zi joylashgan joyda olib borishi va soliq organlariga belgilangan muddatlarda, ko'pincha har chorakda yoki oyda bir marta soliq deklaratsiyasini taqdim etishi shart.

1-jadval. Yevropa mamlakatlaridagi 2023-yildagi QQS stavkalarining tarkibi [9]

Mamlakatlar	QQS stavkalari (%da)			
	standart	imtiyozli stavkalar		minimal
Avstriya	20	13	10	
Belgiya	21	12	6	
Bolgariya	20		9	
Vengriya	27	18	5	
Germaniya	19		7	
Gretsiya	24	13	6	
Daniya	25			
Irlandiya	23	9	13,5	4,8
Ispaniya	21		10	4
Italiya	22	10	5	4
Kipr	19	9	5	
Latviya	21		12	5
Litva	21	9	5	



Luksemburg	16	13	7	3
Malta	18	7	5	
Niderlandiya	21	9		
Polsha	23	8	5	
Portugaliya	23	13	6	
Ruminiya	19	9	5	
Slovakiya	20		10	
Sloveniya	22	5	9,5	
Finlyandiya	24	14	10	
Fransiya	20	10	5	2,1
Xorvatiya	25	13	5	
Chexiya	21	15	10	
Shvetsiya	25	12	6	
Estoniya	20		9	

YEIda umumiy minimal QQS stavkasi 15% ni tashkil qiladi, ammo yakuniy stavkalar har bir mamlakatda alohida belgilanadi. Shunday qilib, Yevropadagi mamlakatlarda QQS stavkalari 16% dan 27% gacha oraliqda o'zgarib turadi. Misol uchun, Yevropada eng past QQS stavkasi Luksemburgda o'rnatilgan bo'lib, soliq stavkai 16%ni, Vengriyada esa eng yuqori stavkasi 27% belgilangan. YEIda o'rtacha QQS stavkasi va eng keng tarqalgan stavkasi 20–21% ni tashkil qiladi. Ba'zi mamlakatlar oziq-ovqat yoki kitoblar kabi tovarlarning ayrim toifalari uchun soliq stavkalari pasaytirilgan. YEIda QQSning minimal stavkalari 5% dan past bo'lib, ushbu chora-tadbirlar muayyan tarmoqlar yoki ijtimoiy guruhlarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan (1-javdal).

Mazkur soliq bo'yicha pasaytirilgan stavkalardan tashqari, YEI mamlakatlarida QQS solig'idan to'liq ozod qilish amaliyotini ham qo'llaydi. Shunday qilib, Yevropada QQSdan to'liq ozod qilish odatda ma'lum bir mamlakatda jamiyat yoki biznes uchun alohida ahamiyatga ega bo'lgan tovarlar va xizmatlarning ayrim toifalariga nisbatan qo'llaniladi. Ammo agar QQSdan to'liq ozod qilish qo'llanilishi mumkin bo'lgan toifalarni umumlashtiradigan holda, quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

1. tibbiy xizmatlar (konsultatsiyalar, operatsiyalar, davolash va boshqa tibbiy muolajalar);
2. ta'lim (maktablar, universitetlar va o'quv markazlari);
3. bank, sug'urta va moliyaviy xizmatlar;
4. uzoq muddatli yashash uchun ijaraga beriladigan uy-joylar (masalan, kvartiralar va uylar)
5. davlat organlari yoki munitsipalitetlar tomonidan ko'rsatiladigan davlat xizmatlari (pochta xizmatlari yoki madaniy xizmatlar);
6. ijtimoiy xizmatlar, masalan, muhtojlarga yordam ko'rsatadigan xayriya tashkilotlari yoki muassasalar tomonidan taqdim etiladigan xizmatlar;
7. YEIdan tashqariga bo'lgan tovarlar va xizmatlar eksportiga;

Shuni ta'kidlash kerakki, davlatlarda har yili QQS stavkalarini o'zgartirishi mumkin va pasaytirilgan stavkalarni qo'llash qoidalari mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatga va ma'lum bir tovar va xizmatga bo'lgan ehtiyojga bog'liqdir.

QQS bo'yicha hisob-kitoblarni optimallashtirish tadbirkorlik subyektlari uchun muhim vazifalardan hisoblanadi, chunki stavkalarni to'g'ri tanlash moliyaviy oqimlarga va soliq yukiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. QQS stavkalarini samarali tanlashda quyidagilarga e'tibor berishingiz kerak: faoliyat bilan bog'liq soliq qonunchiligini chuqur o'rganib chiqish biznesga qaysi qoidalar qo'llanilishini tushunish imkonini beradi; Kompaniya tomonidan realizatsiya qilinadigan barcha tovar va xizmatlarni QQS solinishidan kelib chiqqan holda (standart stakada, pasaytirilgan stavkada va ozod qilingan) alohida hisobini yuritish; pasaytirilgan stavkada soliq solinadigan tovarlar va xizmatlar iste'molchilar talabini va raqobatbardoshlikni oshishiga olib keladi; QQS bo'yicha ro'yxatdan o'tgan B2B shaklidagi faoliyatini amalga oshiradigan kompaniya uchun teskari soliq solish usulidan (reverse charge) foydalanishni samarali hisoblanib, bu mijozlar uchun hisob-fakturalarga QQSni qo'shmaslik imkonini beradi, biroq budjetga to'lanadigan soliqni to'g'ri hisobga olgan holda; Xorijda QQSni hisobga olish uchun maxsus dasturlar va tizimlardan foydalanish soliqni hisoblash va to'lash jarayonini sezilarli darajada soddalashtirishi mumkin bo'lib, shu bilan birga, buxgalteriya hisobini va soliq majburiyatlarini to'g'ri va to'liq bajarish imkoniyatini beradi.

QQS stavkalarini samarali boshqarish orqali kompaniyalar soliq yukini kamaytirishga va bozorda raqobatbardosh bo'lishga erishish mumkin. Biroq, moliyaviy jarimalar va penyalar shaklida salbiy oqibatlarga olib kelmaslik uchun barcha soliq qonunlari va talablariga rioya qilish muhim hisoblanadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Shunday qilib, bugungi kunda YEI doirasida statistik ma'lumotlarni to'plash va yig'ilgan qo'shilgan qiymat solig'ini qayta taqsimlashning markazlashtirilgan tizimini joriy etish zaruriyati yuzaga kelgan. Ushbu tizim moliyaviy oqimlarni tartibga solish uchun haqiqatan ham keng imkoniyatlarga ega bo'ladi. Keyingi mantiqiy qadam QQSni YEIning federal soliqiga aylantirish va keyin uni Ittifoqning markaziy organlariga taqsimlashdan iborat bo'ladi. YEIga a'zo davlatlar hozirda bu yo'nalishda harakat qilishga tayyor emaslar, chunki bu ularning fiskal sohadagi moliyaviy mustaqilligini buzilishini anglatadi.

Xulosa qilib shuni ta'kidlaymizki, Yevropa QQS o'z rivojlanishida uzoq yo'lni bosib o'tgan va bugungi kunda YEI mamlakatlari uni o'z hududlarida samarali QQS ma'murchiligini samarali amalga oshirishni ta'minlamoqda. Shu bilan bir qatorda, YEI doirasida QQS ma'murchiligini yanada takomillashtirish uchun yangi chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Налог на добавленную стоимость: справочная информация подготовлена специалистами свободной энциклопедии Википедия. <http://ru.wikipedia.org/wiki>.
2. Вавилова М. НДС в системе косвенных налогов Европейского Союза и Российской Федерации [Электронный ресурс] / М. Вавилова// Электронный каталог диссертаций.<http://www.dissercat.com/content/nds>.
3. Мишенина М.С., Аскарлова З.Р., НДС в Европейских странах и перспективы его дальнейшего развития.
4. Возврат НДС из стран ЕС.<http://vedconsult.ru/ru/pages>.
5. <https://jurhouse.ru/articles/1211/document2097.shtml>.
6. http://www.roche-duffay.ru/articles/eu_vat_2010.htm.
7. Крючков В. НДС в Европе: изменения правил взимания с 2010 года, порядок уплаты и отчетность. <http://www.legalbridge.ru/presscenter/publications/Detail.php?ID=2860>.
8. Налог на добавленную стоимость в международной торговле:Европейский союз. http://www.roche-duffay.ru/articles/ec_vat.htm.
9. Campio Group, 2024.<https://www.campiogroup.com>.

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2024. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77)

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, [@iqtisodiyot_77](https://t.me/@iqtisodiyot_77) telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

